Maxamadiyev Farrux Mirazimovich, Baratov Laziz Suyun o'g'li	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING NAZORATINI TASHKIL QILISH.....	688
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Dadaboyev Abdurahmon Ne'matjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI	693
Yusubov Inomjon Ikrom o'g'li	
MOLIYAVIY RESURSLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK VA AMALIY JIHATLARI	699
Narzulloyev Behruz Baxtiyor o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI	702
Kazakbayev S.B.	
BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	705
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	709
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING IMTIYOZLI MOLIYALASHTIRISH MYEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	718
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
MAHALLA TIZIMIDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	724
Berkinov Bozorboy Berkinovich	
XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI	728
Fayyoza Xalimova Nafasovna	



XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI

Fayyoza Xalimova Nafasovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Turizm va mehmonxona biznesi kafedrası katta o'qituvchisi, PhD.

ORCID: 0000-0002-3034-2066

Annotatsiya. Globalashuv jarayonlari, xalqaro biznes aloqalarining kengayishi va bilim iqtisodiyotining shakllanishi natijasida MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) turizmi xalqaro turizm bozorining eng yuqori daromadli va barqaror segmentlaridan biriga aylandi. MICE turizmi yuqori qo'shimcha qiymat yaratishi, mavsumiylikni kamaytirishi va xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlashi bilan ajralib turadi. Shu sababli ushbu yo'nalishda samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda. MICE turizmi konferensiya, kongress, forum va ko'rgazmalarni tashkil etish orqali turistik xizmatlar tarmoqlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradigan, mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshiradigan hamda multiplikativ ta'sir orqali yalpi ichki mahsulot o'sishiga xizmat qiladigan strategik turizm segmentidir.

Kalit so'zlar: UN Tourism, olimlar, biznes uchrashuvlari, ko'rgazmalar, konferensiya, kongress, MICE turizmi, byuro, sayyoh, diversifikatsiya, iqtisod, xizmat.

Abstract. As a result of globalization, the expansion of international business relations, and the formation of a knowledge-based economy, MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) tourism has become one of the most profitable and stable segments of the international tourism market. MICE tourism is distinguished by its ability to generate high added value, reduce seasonality, and ensure service diversification. Therefore, developing and implementing effective marketing strategies in this field has become a pressing scientific issue. MICE tourism, by organizing conferences, congresses, forums, and exhibitions, strengthens cooperation among tourism service sectors, increases regional economic activity, and contributes to gross domestic product growth through a multiplicative effect, making it a strategic segment of tourism.

Key words: UN Tourism, researchers, business meetings, exhibitions, conferences, congresses, MICE tourism, bureau, tourist, diversification, economy, service.

Аннотация. В результате глобализации, расширения международных деловых связей и формирования экономики знаний, туризм MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions — встречи, поощрения, конференции, выставки) стал одним из наиболее прибыльных и стабильных сегментов международного туристического рынка. Туризм MICE отличается способностью создавать высокую добавленную стоимость, снижать сезонность и обеспечивать диверсификацию услуг. Поэтому разработка и внедрение эффективных маркетинговых стратегий в этой области становится актуальной научной задачей. Туризм MICE, организуя конференции, конгрессы, форумы и выставки, усиливает сотрудничество между туристическими сервисными секторами, повышает региональную экономическую активность и способствует росту валового внутреннего продукта через мультипликативный эффект, являясь стратегическим сегментом туризма.

Ключевые слова: UN Tourism, учёные, деловые встречи, выставки, конференции, конгрессы, туризм MICE, бюро, турист, диверсификация, экономика, сервис.

KIRISH

Zamonaviy ommaviy tadbirlar nafaqat ijtimoiy faollikni ifodalash, aholining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lib, balki turizmni rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Bunday tadbirlar ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish, sport va san'at bilan shug'ullanish



uchun imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, yirik ommaviy bayramlar, jumladan festivallar, konsertlar va sport musobaqalari mahalliy hamda xorijiy sayyohlarni jalb etib, hududning turistik jozibasini oshiradi. Ijtimoiy hayotimizda ko'plab ommaviy tadbirlar mavjud bo'lib, shundan to'y marosimlari, ma'rafonlar, teatr tomoshalari, ommada keng tarqalgan xalq bayramlari va biznes maqsadidagi uchrashuvlarni tashkil etish mumkin. Bunday tadbirlar nafaqat madaniy merosni namoyon etadi, balki mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun yangi tajribalarni kashf etish imkonini beradi.

Jahon sayyohlarining tashrfi turizm sohasidagi global ko'rsatkich bo'lib, xalqaro miqyosdagi sayohatlar va sayyohlik oqimlarini o'z ichiga oladi. UN Tourism ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'ylab ro'yxatga olingan xalqaro sayyohlar soni 1,4 milliardni tashkil etib, bu 2023-yilga nisbatan 11 foizga ko'p va pandemiyadan oldingi darajaning 99 foiziga tengligini bildiradi. 2024-yil soha tarixidagi eng jiddiy inqirozdan keyingi xalqaro turizm uchun tiklanish yili bo'ldi. Yaqin Sharq, Yevropa va Afrika hududlarida sayyohlik oqimini tiklashda yaxshi natijalarga erishildi, xususan, pandemiyadan keyin eng katta o'sish Yaqin Sharqda kuzatildi.

2024-yilda hududiy turizm turlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, Jahon turizm tashkilotining (UN Tourism) turizm sohasini diversifikatsiya qilishga qaratilgan tashabbuslari yangi turizm klassifikatsiyalarining shakllanishiga asos bo'ldi. So'nggi yillarda tashkilot wellness turizmi, dark tourism, gastronomiya turizmi, regenerativ turizm, sport turizmi va biznes (ishbilarmonlik) turizmi yo'nalishlarida xalqaro sammitlar va seminarlarni tashkil etib, mazkur sohalarning konseptual rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashga ko'maklashdi. 2024 yilda esa Jahon turizm tashkiloti agro turizmi bo'yicha VIII Global konferensiya (Armaniston), IX Jahon gastronomiya turizmi forumi (Bahrayn), birinchi Futbol turizmi forumi (Kot-d'Ivuar) kabi yirik tadbirlarni o'tkazish orqali innovatsion tashabbuslarni ilgari surdi. Ushbu ommaviy tadbirlar esa o'z navbatida MICE turizmining rivojlanishida muhim katalizator vazifasini bajaradi.

MICE turizmi mutaxassislar tomonidan o'rganilganda ishbiarmonlik yoki biznes turizmi deb ham talqin qilinadi. Ishbilarmonlik turizmi o'z tovarlari bilan savdo qilish uchun uzoq masofalarni bosib o'tgan kichik savdogarlarning faoliyati natijasida paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi. Bu biznes Fors, Misr, Rim va Yunon imperiyalik davrlarida yanada rivojlangan. Yevropada MICE turizmi XIX asrda sanoat inqiloblari va iqtisodiy o'zgarishlar natijasida shakllana boshlagan. Ish safari va uchrashuvlarga bo'lgan ehtiyoj mehmonxona xo'jaligi hamda temir yo'l infratuzilmasining rivojlanishiga turtki bo'lgan. XIX asr oxiri va 20-asr boshlarida Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiyada o'tkazilgan xalqaro savdo yarmakalari MICE turizmining dastlabki ko'rinishlari bo'lib, bugungi kungacha uning izchil rivojlanishiga zamin yaratdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Birinchi kongress va tashrif buyuruvchilar byurosi 1896-yilda AQShning Detroyt shahrida sayyohlar va konvensiya sektori ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilgan. 1960-yillardan boshlab dunyo bo'ylab kongresslar, konvensiyalar, konferensiyalar va boshqa yirik tadbirlarni qo'llab-quvvatlovchi majmualarga investitsiyalar keskin ortdi. Yevropada Sheffield Arena, National Arena va Wales Millennium Centre kabi infratuzilmalar barpo etildi hamda qit'adagi ilk Konvensiya byurosi Belgiyada tashkil etildi. 1977-yilda bunyod etilgan Belgraddagi Sava Centar esa mintaqaning eng yirik biznes va kongress markazlaridan biriga aylandi.


MICE atamasi ingliz tilidagi to'rtta yo'nalishni — uchrashuvlar, insentiv safarlar, konferensiyalar va ko'rgazmalar — ifodalaydi va ushbu segmentning asosiy tashkiliy yo'nalishlarini belgilaydi (1-rasm).

Quyidagi rasmda:

- Meetings – uchrashuvlar, majlislar
- Incentives – mukofot safarlari, rag'batlantiruvchi sayohatlar
- Conferences – konferensiyalar yoki konvensiyalar
- Exhibitions / Events – ko'rgazmalar yoki yirik tadbirlar

yoritilgan.

Hozirgi kunga qadar MICE turizmiga xalqaro tashkilotlar va tadqiqotchi olimlar tomonidan quyidagi ta'riflar shakllantirilgan.



1-rasm. MICE turizm kengaytmasi¹.

¹ Muallif tadqiqotlari asosidagi ishlanma



1. Xalqaro tashkilotlar ta'riflariga ko'ra:
 - o ICCA (International Congress and Convention Association): "MICE – bu ilmiy, tijorat, madaniy va boshqa sohaga oid tadbirlarni tashkil qilish va ularni o'tkazish orqali iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi turizm tarmog'idir."
 - o UN Tourism (Birlashgan Millatlar Turizm Tashkiloti): "MICE turizmi – bu uchrashuvlar, biznes anjumanlari va ko'rgazmalar orqali sayohat qilishni o'z ichiga olgan turizm sohasi bo'lib, u turizmning yuqori daromadli segmenti hisoblanadi."
2. Olimlar tomonidan berilgan ta'riflar:
 - o Davidson va Cope (2003): "MICE turizmi – bu konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladigan turizm sohasi bo'lib, u katta iqtisodiy samaradorlikka ega."
 - o Rogers (2008): "MICE turizmi – bu biznes maqsadlarida amalga oshiriladigan sayohatlar bo'lib, unda xalqaro va milliy anjumanlar, biznes uchrashuvlari va ko'rgazmalar muhim o'rin tutadi."
 - o Getz (2012): "MICE turizmi – bu tashkiliy va logistika jihatdan murakkab tadbirlar majmuasi bo'lib, u turistik manzillarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi."
 - o Holloway (2016): "MICE turizmi – bu yuqori daromadli sayohat turlari bo'lib, ular ishbilarmonlik hamkorligi va tarmoq yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi."
 - o Chen (2017), "Biznes sayohatchilar uchun stressni yengish strategiyalari" maqolasida: "Sayohatni puxta rejalashtirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va bo'sh vaqtni samarali tashkil etish biznes sayohatchilarning stressini kamaytiruvchi muhim omillardir. Shu bilan birga, turar joy infratuzilmasi ish safarida psixologik yengillik va qulaylikni ta'minlashga xizmat qiladi."
3. So'nggi tadqiqotlar:
 - o Muhammad Saufi, Anas Nurul, Amirah Maddiah va Nurin Uzma tadqiqotlarida MICE sanoati muvaffaqiyatining asosiy omillari sifatida ishbilarmon sayohatchilar ehtiyojlari, motivatsiya, idrok, qoniqish, marketing strategiyalari, samaradorlik ko'rsatkichlari, texnologik tendensiyalar va mavjud muammolar alohida ta'kidlanadi.

Xalqaro tashkilotlar, yetakchi olimlar va tadqiqotchilar MICE turizmini yuqori daromad keltiruvchi, biznes, konferensiya, ko'rgazma va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan tadbirlarni o'z ichiga olgan, iqtisodiy va innovatsion rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etuvchi zamonaviy turizm sohasi sifatida e'tirof etadilar (1-jadval).

1-jadval. MICE turizmi to'rtta so'zning qisqartmasi bo'lib har bir so'zning izohi yoritib berilgan²

Uchrashuvlar (Meetings)
Odatda o'zlarining biznes strategiyalari va loyihalarini muhokama qilish uchun o'tkaziladigan ma'lum kun tartibiga ega bo'lgan professional yig'ilishlar. Ushbu tadbirlar kichik jamoa yig'ilishlaridan tortib yirik korporativ yig'ilishlarga bo'lishi mumkin. Kattaroq yig'ilishlar odatda yiliga bir marta otkaziladi.
Rag'batlantirish (Incentives)
Kompaniyalar tomonidan o'z xodimlariga, hamkorlariga va yoki mijozlariga aniq maqsadlar yoki marralarga erishish uchun mukofot sifatida taqdim etiladigan sayohatlar va tajribalar. Ushbu sayohatlar ko'pincha oluvchilarni rag'batlantirish va ilhomlantirish uchun mo'ljallangan, bu ularning sodiqligi va samaradorligini oshiradi.
Konferensiyalar (conferences)
So'nggi sanoat tendentsiyalarini muhokama qilish, bilim va tarmoqni almashish uchun umumiy manfaatlar va kasblarga ega shaxslar va guruhlarini birlashtiradigan keng ko'lamli tadbirlar. Ushbu tadbirlarda ko'pincha asosiy ma'ruzachilar, panel muhokamalari va seminarlar o'tkaziladi.
Ko'rgazmalar (Exhibitions)
Kompaniyalar o'z mahsulotlarini, xizmatlarini va innovatsiyalarini maqsadli auditoriyaga namoyish etadigan murakkab tadbirlar. Ushbu tadbirlar tarmoq yaratish, etakchi ishlab chiqarish va bozorni kengaytirish uchun imkoniyatlar beradi, bu esa ularni ko'pincha o'z sohalariga xos qiladi.

Yuqoridagi jadvalda MICE turizmi professional tadbirlarning to'rt yo'nalishini qamrab oladi. Uchrashuvlar – korporativ strategiya va loyihalarni muhokama qilishga xizmat qiluvchi yig'ilishlar; rag'batlantirish – xodimlar va mijozlarni mukofotlash hamda motivatsiya qilish maqsadida tashkil etiladigan sayohatlar; konferensiyalar – mutaxassislar bilim va tajriba almashadigan yirik anjumanlar; ko'rgazmalar – mahsulot va xizmatlarni namoyish etish orqali bozorni kengaytirishga xizmat qiluvchi tadbirlar. Ushbu to'rt yo'nalish MICE tizimining asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, ular biznes va sanoat rivojida muhim ahamiyatga ega.

2 1. Muallif tadqiqotlari asosidagi ishlanma



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda MICE turizmining xalqaro turizm bozorida shakllanishi va rivojlanish jarayonlarining nazariy asoslarini yoritish maqsadida nazariy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning qiyosiy-taqqoslash, shuningdek, tizimli yondashuv va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi.

Xususan, qiyosiy-taqqoslash usuli yordamida MICE turizmi tushunchasiga turli xalqaro tashkilotlar (UNWTO, ICCA) hamda yetakchi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan berilgan ta'riflar o'zaro solishtirildi va ularning umumiy hamda farqli jihatlari aniqlash imkoniyati yaratildi. Ushbu usul MICE turizmining nazariy evolyutsiyasini aniqlash va uning zamonaviy iqtisodiy mazmunini shakllantirish imkonini berdi.

Tizimli yondashuv asosida MICE turizmi xalqaro turizm bozorining alohida segmenti sifatida ko'rib chiqilib, uning biznes, innovatsiya, ilmiy-tadqiqot va xizmatlar sohasi bilan o'zaro aloqadorligi tahlil qilindi. Natijada MICE turizmining iqtisodiy, institutsional va tashkiliy komponentlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berildi.

Shuningdek, kontent-tahlil usuli orqali xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, tahliliy hisobotlar va strategik hujjatlar o'rganilib, MICE turizmining rivojlanish tendensiyalari va nazariy yondashuvlari tizimlashtirildi. Olingan ilmiy xulosalar MICE turizmining xalqaro turizm bozoridagi o'rnini va ahamiyatini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Xalqaro turizm bozorida MICE turizmining shakllanish jarayoni nazariy mantiq, real misollar va statistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida iqtisodiy samaradorlik, hududiy turizm barqarorligi va jozibador investitsion muhitni shakllantirish masalalari ko'rib chiqildi.

MICE turizmi iqtisodiy jihatdan eng samarali turizm yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu turizm turi asosan biznes uchrashuvlari, rag'batlantiruvchi safarlar, konferensiyalar va ko'rgazmalarni o'z ichiga oladi hamda oddiy dam olish turizmiga nisbatan ko'proq daromad keltiradi. UN-Tourizm ma'lumotlariga ko'ra, MICE tadbirlarida ishtirok etuvchi turistlar ko'proq xarajat qiladi, chunki ular yuqori toifadagi mehmonxonalarda yashaydi va transport, catering, konferensiya zallari hamda boshqa professional xizmatlardan foydalanadi. Natijada bir nafar biznes turist mamlakat iqtisodiyotiga oddiy sayyohga qaraganda bir necha barobar ko'p daromad olib kiradi.

MICE turizmining muhim afzalliklaridan yana biri — mavsumiylik muammosini kamaytirishidir. Dam olish turizmi asosan ma'lum fasllarga bog'liq bo'lsa, MICE tadbirlari yil davomida o'tkaziladi. Hududiy turizm infratuzilmasi, jumladan mehmonxonalar, restoranlar va xizmat ko'rsatish sohasida barqaror bandlikni ta'minlab, daromadlarning uzluksiz bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, MICE turizmi iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlariga bir vaqtning o'zida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Transport, savdo, reklama, texnik ta'minot, tarjimonlik va event-menejment kabi sohalarning barqaror rivojlanishida MICE tadbirlari asosiy omil hisoblanadi.

MICE turizmi investitsiyalarni jalb qilishda ham muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro konferensiyalar va ko'rgazmalar mamlakatning biznes muhiti, iqtisodiy salohiyati va imidjini namoyon etib, xorijiy investorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Shu orqali davlat byudjetiga soliq tushumlari oshadi, hududlarning raqobatbardoshligi kuchayadi va xalqaro hamkorlik rivojlanadi. Shu sababli Singapur va Germaniya kabi mamlakatlar MICE turizmini iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki:

- Biznes turistlar ko'proq xizmatlardan foydalanib, oddiy sayyohlarga nisbatan ko'proq mablag' sarflaydi. Shu sababli MICE tadbirlari mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.
- MICE ishtirokchilari, jumladan mehmonxona va restoranlar, transport, savdo, reklama va boshqa xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- MICE turizmi investitsiyalarni jalb etish, davlat byudjeti tushumlarini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois ayrim rivojlangan mamlakatlar uni iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa va takliflar

Ilmiy-nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, uslubiy yondashuv nuqtai nazaridan "MICE turizmi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini quyidagicha takomillashtirish zarur: konferensiyalar, xalqaro anjumanlar, kongresslar, forumlar va ko'rgazmalarni tashkil etish hamda o'tkazish orqali turistik xizmatlar sohasida tarmoqlararo kooperatsiyani ta'minlash, mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirish va turistik xarajatlarning multiplikativ ta'siri asosida mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmining o'sishiga xizmat qiladigan strategik turizm segmenti sifatida rivojlantirish. MICE turizmi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi va uzoq muddatli barqaror o'sishga xizmat qiluvchi institutsional mexanizm sifatida baholanishi mumkin.

Zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish. Xalqaro standartlarga mos kongress markazlari, ko'rgazma pavilyonlari va texnologik jihozlangan konferensiya maydonlarini kengaytirish zarur.



Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish. Event-menejment, kongress-servis, xalqaro protokol va logistika yo'nalishlarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini kuchaytirish lozim.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish. MICE loyihalarini moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish investitsion samaradorlikni oshiradi.

Xalqaro marketing va brendingni kuchaytirish. Mamlakatni mintaqaviy MICE markazi sifatida targ'ib qilish, xalqaro forumlar va ko'rgazmalarni jalb etish siyosatini izchil olib borish zarur.

Raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish. Gibrid va onlayn-konferensiya formatlarini rivojlantirish, smart-infratuzilma va raqamli xizmatlarni kengaytirish global raqobatbardoshlikni oshiradi.

MICE turizmi qisqa muddatli daromad manbai emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, investitsion faollik va xalqaro integratsiyani ta'minlovchi strategik platforma hisoblanadi. Uni tizimli va ilmiy asosda rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barqarorligi hamda global maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xalimova, F. N. (2023). O'zbekistonda MICE turizmini barqaror rivojlanishida qulay infratuzilma. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 1(10), 112–114.
2. Behzod, B., & Husniddin, E. (2025). Strategic development of MICE tourism in Spain: Trends and implications. *Innovation Science and Technology*, 1(1), 72–76.
3. Sodikov, M. (2025). Sustainable tourism and green hotel investment in Karakalpakstan: Potential for German engagement. *International Congress on Scientific and Academic Research*, ALBAY, Republic of the Philippines, Bicol University.
4. International Congress and Convention Association. The global community and knowledge hub for the international association meetings industry.
5. The United Nations World Tourism Organization (UN Tourism, formerly UNWTO) is a specialized agency of the United Nations which promotes responsible, sustainable, and universally-accessible tourism.
6. Muhammad Saufi, Anas Nurul, Amirah Maddiah, & Nurin Uzma, Eizzaty Noor. Key success factors toward MICE industry: A systematic literature review.
7. The MICE tourism value chain: Proposal of a conceptual framework and analysis of disintermediation. (2020). *Journal of Convention & Event Tourism*.
8. DMC Travel. MICE tourism explained. <https://dmc.travel/mice-tourism-explained/>
9. UN Tourism. UN Tourism official report. <https://webunwto.s3.eu-west-1.amazonaws.com/s3fs-public/2024-01/UN%20Tourism>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>